



ZULFIYAXONIM IJODINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

*Abduraxmonova Shahnoza Toxirjon qizi, Nosirova Sevinch Faxriddin qizi
Toshkent tibbiyot Akademiyasi talabalari*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada shoira Zulfiya Isroilova hayoti va ijodi, she'riyati, uning o'ziga xos qirralari haqida ma'lumot berilgan bo'lib, uning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni atroflicha tahlil etilgan. Zulfiya she'rlarinng tahlili shuni ko'rsatdiki, uning she'rlarida yo'nalish, uslub, mazmuni va ruhini, maqsad va g'oyalarini umuminsoniy fikr va tuyg'ular belgilaydi.

Kalit so'zlar: Zulfiya, she'r, she'riyat muhabbat, sadoqat, sog'inch, hijron, shoira, tuyg'ular.

KIRISH

O'zbek she'riyatining nufuzi, she'riyat olamida o'zining qalbga yaqin she'rlari bilan o'zbek xalqi qalbiga kirib borgan Zulfiyaxonim Isroilova she'rlari bugunga qadar yosh-u qari tomonidab sevib o'qiladi. U bolaligidan olamga hayrat ko'zi bilan qarovchi, uning boshqalar ilg'ay olmagan o'ziga xosliklarini sezadigan, she'riyatga ixlosmand qiz ekanligi bilan ajralib turardi. Buning ustiga, oilasidagi muhit ham yosh Zulfiyada badiiy ijodga ishtiyoqni alangalatardi. Darhaqiqat, shoira bolaligini eslarkan, otasi haqida shunday eslaydi: "Otamni... Isroil degrez der edilar. Otam zahmatkash temirchi edi. Otamning hamma vaqt olovga yo'ldosh kasbidan faqat zavq ko'rар edim. Otamday qudratli odam yo'q edi men uchun. Temirlar otam qo'lida chaqmoqlar taratishiga boqib, hayratda qolar edim..."

O'zbek xalqining atoqli va ardoqli vakili, taniqli jamoat arbobi, xalqaro tinchlik uchun kurash jarchisi Zulfiya Isroilova xalqaro "Nilufar", Javoharlal Neru nomidagi hamda Davlat mukofatlari sohibasidir. Zulfiyaxonim Isroilova 1915-yili Toshkent shahrining qadimiy Degrez mahallasida tavallud topgan. Avval boshlang'ich maktabda, so'ng xotin – qizlar bilim yurtida tahsil olgan. 1935-1938-yillarda O'zekiston fanlar akademiyasining til va adabiyot instituti aspiranturasida o'qigan. Shundan keyin turli nashriyotlarda ishlagan. 1935-yildan



1980-yilgacha, qariyib o'ttiz tilga yaqin respublikamizda keng tarqalgan "Saodat" nomli xotin – qizlar jurnalida bosh muharrir bo'lgan. Zulfiyaxonim Isroilova Hamid Olimjon bilan turmush qurgan. Biroq ular orzularga to'la hayot kechirayotgan pallada 1944-yili mashina halokati tufayli turmush o'rtog'idan ayrildi. Shoira esa 1996 -yilda 81-yoshida vafot etadi.

Zulfiyaxonim Zulfiyaxonim xalqimiz uchun nafaqat o'zbek she'riyatida o'ziga xos o'ringa ega shoira, balki inson sifatida ham shu xalqning barcha oliyjanob, insoniylik xislatlariga ega va o'zining sadoqati bilan yoshlarga namuna bo'la oladigan ayoldir.

Mevaning toti yetishgan daraxtga qanday bog'liq bo'lsa, ijodkorning yaratgan asarlari ham uning shaxsiyatiga shunday bog'liqdir. Sobiq Sho'ro davrining ijodkorlari orasida Zulfiya she'riyati ayniqsa shu jihatdan ajralib turadi. Uning nozik chizgilar va go'zal satrlarida bir vaqtda "inson ruhiyatini g'ajib tashlay oladigan" ayriliqdan kelib chiqqan iztirob, taqdirning beqarorligiga qarshi isyon aks etadi. Bu she'riyat shoira shaxsiyati va ruhiyatining inja manzaralarini aks ettiradi. Zulfiya ijodida hijron va sadoqat mavzusidagi she'rler alohida o'rinn tutadi. Bu, tabiatan, o'ziga xos holat, chunki u uzoq umrini ikki kishiga bag'ishlab, ellik ikki yil davomida ayriliqni his etgan va shu bilan hijron va sadoqat timsoliga aylangan. Shoiraning ayriliq va hasratdan to'lgan she'rlerida esa umidsizlik, noshukurlik yoki so'ngsiz qayg'u his-tuyg'ulari yo'q. Uning she'rlerida muhabbatning dardini chekkan, lekin hayotning yorqin tomonlarini ko'ra olgan, shukronalik tuyg'usi bilan yashayotgan bir inson sezimlari aks etadi. Zulfiya she'riyatidagi mashhur "Bahor keldi seni so'roqlab" asarida ham hijron mavzusining kuchli ta'siri seziladi. Ushbu she'rda insoniy alam va o'kinch so'z bilan ifodalanib, samimiylar tarzda ko'rsatilgan, bu esa o'quvchining ruhiyatiga chuqur ta'sir qiladi. Bahor, yel va o'rik gullarining timsollari barchasi sog'inch, qayg'u va ayriliqni ifodalagan holda bir-biriga yaqinlashadi. Bu dard esa uch qayg'ukashni bir-birini sevishga undaydi, ularni bir-biriga yaqinlashtiradi. She'rda shunday deyiladi:

Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,

O'rik gullarini eding maftuni.



Har uyg'ongan kurtak hayot bergen kabi

Ko 'zlaringga surtib o 'parding uni.

Xulosa: Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Zulfiyaxonim o‘zbek she’riyatida o‘ziga xos o‘rniga ega bo‘lish bilan bir qatorda qalbi pok inson sifatida ham xalqning e’tirofiga sazovor bo’lgan ayol. Ushbu maqolani yozish orqali uning xalqona va haqqoniy she’rlarining qadri ham umri ham ziyoda bo’lganligi sababini yana ham chuqurroq anglab yettim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Naim Karimov m.G. Gulyamova, 1983
2. Qayumov L. Shoira Zulfiya. Toshkent, O’zadabiynashr, 1965
- 3.Tanlangan asarlar (3 jildli), Tashkent,1985.